



KIMYO SANOATI SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART SUVNI KIMYOVIIY TOZALASH MUTAXASSISLARI



“Suvni kimyoviy tozalash mutaxassislari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Kimyo sanoati sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Suvni kimyoviy tozalash mutaxassislari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0022



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart "Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi", "Suyuqlikni tozalash apparatchisi", "Ion almashinuv apparatchisi", "To'yintirish agregatlari apparatchisi", "Maxsus suv tozalash operatori" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

deaerator – bu suvdan gazlar, asosan (O_2) va karbonat angidrid (CO_2)ni chiqarib tashlash uchun mo'ljallangan uskuna;

dozator – kimyoviy moddalarni aniq miqdorda qo'shish uchun moslama;

eritma – bu bir modda boshqa moddada eriydigan va natijada bir xil ko'rinishdagi suyuqlik hosil bo'ladigan aralashma;

fizik xossalar – moddaning tarkibi o'zgarmasdan, ya'ni kimyoviy reaksiyasiz aniqlanadigan xossalar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kimyoviy ishlab chiqarish – xom ashyoni qayta ishlab, kimyoviy o'zgarishlar yo'li bilan qaytmas mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mashina va apparatlarda olib boriladigan jarayonlar va operatsiyalar yig'indisi;

kimyoviy texnologiya – kimyoviy o'zgarishlar ishtirokida texnik, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan mahsulotlarni (iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarish usullari va jarayonlari haqidagi tabiiy, amaliy fan;

kimyoviy xossalar – moddaning boshqa modda bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishi natijasida o'zgarishi bilan bog'liq xossalar;

kondensat – jarayon natijasida hosil bo'lgan suyuq modda;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

konsentratsiya – bu eritmada modda qancha miqdorda ekanligini bildiruvchi ko'rsatkich;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

neytralizatsiya reaksiyasi (lotinchadan *neuter* – u ham emas , bu ham emas) – tuz va kuchsiz dissotsiyanadigan modda (suv) hosil bo'lish bilan boradigan kislota va asoslarning o'zaro reaksiyasi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

pH – (vodorod ko'rsatkichi)-suvning kislotaligi yoki ishqorligini ko'rsatadi;

reagent – kimyoviy modda bo'lib, tozalash jarayonida aralashmalarni chiqarish uchun qo'llanadi;

texnologik parametrlar – bu ishlab chiqarish (texnologik) jarayonlarni to'g'ri va samarali amalga oshirish uchun nazorat qilinadigan va belgilanadigan miqdoriy ko'rsatkichlardir.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi" (IFUT-2.1), O'zMSt 640:2025;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK 2025), O'zMSt 641:2025;

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining Xo'jalik faoliyatining Umumdavlat Tasniflagichi bo'yicha xo'jalik faoliyatining turlari 2-tahrir "Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish";

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining 2006-yil 12-mayda tasdiqlangan "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida mehnat muhofazasi bo'yicha yagona ishlar tizimi haqida nizomi.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

T/r – Tartib raqami.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Suvni kimyoviy tozalash mutaxassislari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Kimyo sanoatida Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini olib borish, texnologik uskunalarga xizmat ko'rsatish va nazorat qilish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	C seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat; 20. Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish; 20.1 Asosiy kimyoviy moddalar, o'g'itlar va azotli birikmalar, birlamchi formalarda plastmassa va sintetik kauchuk ishlab chiqarish; 20.15 O'g'itlar va azotli birikmalar ishlab chiqarish; 20.15.1 O'g'itlar ishlab chiqarish.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Kimyo sanoatida suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonni olib borish, jihozlarni barqaror ishlashini ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish, profilaktik tekshiruvlar va ta'mirlash, hujjatlarga ko'ra, texnik jarohatlardan saqlanish, energiya resurslarini samarali sarflash, me'yoriy texnik hujjatlar talablariga va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda texnologik jarayonni yuritish.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31322005- Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi	2
		81313029-Suyuqlikni tozalash apparatchisi	3
		81314026-Ion almashinuv apparatchisi	3
		81319489-To'yintirish agregatlari apparatchisi	3
		31322003-Maxsus suv tozalash operatori	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	31322005 Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi	A1.2	Suvni kimyoviy tozalash jarayonini yuritish, suv tozalash moslamalari va kondensatni tozalash qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ularning ishlashini tartibga solish	A1.01.2	Suvni kimyoviy tozalash jarayonini ishga tushirish uchun texnologik uskunalarni tayyorlash
				A1.02.2	Suvni kimyoviy tozalashning texnologik jarayonini ishga tushirish
				A1.03.2	Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini yuritish
				A1.04.2	Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonining texnologik asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatish va diagnostika qilish
		A2.2	Kation va anionit filtrlarida va ionit adsorbsion kolonnalarda ion almashtirish usuli bilan suvni tuzsizlantirish jarayonini yuritish	A2.01.2	Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayoni doirasida smenalarni qabul qilish va topshirish
				A2.02.2	Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini nazorat qilish va boshqarish
				A2.03.2	Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini rejali to'xtatish
		A3.2	Kationit va anionit filtrlarda va ionit adsorbsion kolonnalarda ion almashtirish usuli bilan suvni chuqur tuzsizlantirish jarayonini yuritish	A3.01.2	Texnologik jarayonni tahlillar va kuzatuvlar natijalari bo'yicha yuritish
				A3.02.2	Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonni favqulodda to'xtatish
				A3.03.2	Muntazam aylanib chiqishlar vaqtida texnologik uskunalarning ishlashini nazorat qilish
2	81313029 Suyuqlikni tozalash apparatchisi	B1.3	Suyuqlikni tozalash texnologik jarayonining alohida operatsiyalarini olib borish	B1.01.3	Suyuqlikni tozalash texnologik jarayonining alohida bosqichlarini tayyorlash va ishga tushirish
				B1.02.3	Suyuqlikni tozalash texnologik jarayonining alohida operatsiyalarini olib borish
		B2.3	Suyuqlikni tozalashning oddiy texnologik jarayonini yuritish	B2.01.3	Texnologik jarayonning ayrim operatsiyalarini amalga oshirish doirasida smenani qabul qilish va topshirish
				B2.02.3	Muntazam texnologik uskunalarni ishlashini nazorat qilish

		B3.3	Suyuqlikni tozalashning murakkab texnologik jarayonini yuritish	B3.01.3	Texnologik asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatish va diagnostika
				B3.02.3	Texnologik jarayonning ayrim operatsiyalarini amalga oshirishda texnologik jarayonni rejali to'xtatish
				B3.03.3	To'yintirish texnologik jarayonini avariya holatida to'xtatish
3	81314026 Ion almashinuv apparatchisi	D1.3	Asosiy noorganik moddalarni ishlab chiqarish, o'g'itlar va azot birikmalarini ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarning ayrim bosqichlarini yuritish	D1.01.3	Yuqori malakali ion almashinuvi apparatchisi rahbarligida ion almashinuvi texnologik jarayonining alohida operatsiyalarini o'tkazish doirasida texnologik asbob-uskunalarini diagnostika qilish
				D1.02.3	Texnologik asbob-uskunalarini texnologik jarayonning ayrim bosqichlari va operatsiyalar kompleksini ishga tushirishga tayyorlash
				D1.03.3	Texnologik jarayonning ayrim bosqichlari va operatsiyalar kompleksini rejali to'xtatish
				D1.04.3	Texnologik jarayonning ayrim bosqichlari va operatsiyalar kompleksini avariya holatida to'xtatish
		D2.3	Asosiy noorganik moddalarni ishlab chiqarish, o'g'itlar va azot birikmalarini ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni to'liq yuritish, nazorat qilish va tartibga solish	D2.01.3	Texnologik jarayonning ayrim bosqichlari va kompleks operatsiyalarini yuritish doirasida smenani qabul qilish va topshirish
				D2.02.3	Texnologik jarayonning alohida bosqichlarini ishga tushirish va yuritish
				D2.03.3	Texnologik jarayonning ayrim bosqichlari va kompleks operatsiyalarini yuritish doirasida muntazam aylanib chiqishlar jarayonida texnologik asbob-uskunalar ishini nazorat qilish
4	81319489 To'yintirish agregatlari apparatchisi	E1.3	To'yintirish jarayonini texnologik rejimga muvofiq yuritish	E1.01.3	To'yintirish agregatiga xizmat ko'rsatish va ishga tushirishga tayyorlash
				E1.02.3	To'yintirish agregatiga xomashyo yoki komponentlarni yuklash va mahsulotni tartibga solish va tozalash, saqlash, texnologik jarayonni ishga tushirish va yuritish
				E1.03.3	To'yintirish texnologik jarayonini yuritish doirasida smenalarni qabul qilish va topshirish
		E2.3	Belgilangan texnologik rejimga muvofiq to'yintirish agregatlarida jarayonlarni yuritish	E2.01.3	To'yintirish texnologik jarayonining texnologik uskunalariga xizmat ko'rsatish va diagnostika qilish
				E2.02.3	To'yintirish texnologik jarayonini rejali to'xtatish
				E2.03.3	To'yintirish texnologik jarayonini avariya holatida to'xtatish

5	31322003 Maxsus suv tozalash operatori	F1.4	Suvlarni tozalash texnologik jarayonini ishga tushirishga tayyorlash va yuritish	F1.01.4	Suvlarni tozalash jarayonini ishga tushirish uchun texnologik uskunalarni tayyorlash
				F1.02.4	Suvlarni tozalashning texnologik jarayonini ishga tushirish va texnologik rejimni tartibga solish
		F2.4	Suvlarni tozalash jarayoniga qo'yiladigan talablarning bajarilishini nazorat qilish	F2.01.4	Suvlarni tozalash texnologik jarayonini yuritish doirasida smenalarni qabul qilish va topshirish
				F2.02.4	Suvlarni tozalash texnologik jarayonining texnologik asbob-uskunalarga xizmat ko'rsatish va diagnostika qilish
				F2.03.4	Suvni tozalash texnologik jarayonni rejali to'xtatish
				F2.04.4	Suvni tozalash texnologik jarayonni avariya holatida to'xtatish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	31322	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo'yilgan talablar:	talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimumini tegishli dastur bo'yicha o'qitish va bilim tekshirishdan o'tish; rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; ekologik mas'uliyat; kuzatuvchanlik; kasbiy etika; mas'uliyatli va intizomli bo'lish; texnologik intizomga qat'iy rioya qilish; diqqatli va aniqlik bilan ishlash; xavfsizlik qoidalariga amal qilish; kimyoviy moddalar bilan ehtiyotkor muomala qilish; kuzatuvchanlik va tezkor qaror qabul qila olish; favqulodda holatlarda o'zini boshqara olish; hujjatlashtirishda tartiblilik; o'rganishga ochiqlik va malakasini doimiy oshirib borish mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; jamoalar bilan ishlash; favqulodda holatlarda belgilangan tartibda harakat qila olish; texnologik rejimga qat'iy rioya qilgan holda mustaqil ishlay olish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	1–4 razryadli Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	2	Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi

Mehnat vazifalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.2- Suvni kimyoviy tozalash jarayonini yuritish, suv tozalash moslamalari va kondensatni tozalash qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ularning ishlashini tartibga solish	A1.01.2- Suvni kimyoviy tozalash jarayonini ishga tushirish uchun texnologik uskunalarni tayyorlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik uskunani ishga tushirishga tayyorlash uchun smena boshlig'idan topshiriq olish
		2. Texnologik uskunalarini ishga tushirishga tayyorlash bo'yicha operatsiyalarni bajarish
		3. Nazorat-o'lchash asboblari va avtomatika, signalizatsiya tizimlari va avariya bloklash, aloqa vositalari, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarining holati va yaroqliligini, avariya vositalarining, yong'in o'chirish vositalarining mavjudligi va yaroqliligini nazorat qilish va tekshirish
		4. Texnologik uskunalar va kommunikatsiyalar, armatura, ventilyatsiya tizimlarining holatini tekshirish va nazorat qilish
		5. Reaktivlarni tayyorlash, dozalash va qurilmalarga yuklash
		6. Texnologik uskunalarini ishga tushirish
		7. Texnologik uskunalar, mexanizmlar, jihozlar, to'siqlar va qo'llanilayotgan asbob-uskunalarining nosozliklarini aniqlash va nosozliklarni bartaraf etish ishlarini bajarish
		8. Texnologik uskunalarini ish o'рни bo'yicha texnologik hujjatlarga muvofiq ishga tayyorlash bo'yicha operatsiyalarni bajarish
		9. Navbatchi elektromontyor, navbatchi chilangar-elektrik bilan birgalikda avariya himoya qilish, signalizatsiya va avariya bloklash tizimlari ishlashini tekshirish, hisobotni rasmiylashtirish
		10. Texnologik hujjatlarni yuritish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyidagi yo'riqnomalar, normativ-texnik hujjatlar talablariga muvofiq texnologik asbob-uskunalarini tayyorlash
		Texnologik uskunani ishga tushirishda texnologik jarayonning alohida bosqichlari parametrlarini boshqarish
		Texnologik uskunalarining ishlashini va favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, signalizatsiya va avariya blokirovkalash tizimlari, aloqa, ventilyatsiya tizimlari, nazorat-o'lchash asboblari va avtomatikaning to'g'ri ishlashini boshqarish
		Analitik nazorat uchun namuna olish
		Texnologik operatsiyalarni bajarishda xavfsiz mehnat usullarini qo'llash, shaxsiy himoya vositalaridan va yong'inga qarshi vositalardan foydalanish
		Xom ashyo, yordamchi materiallar va energiya resurslari sarfini boshqarish
		Asosiy va yordamchi uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish
		Texnologik jihozlarning tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari
		Texnologik hujjatlarni yuritish

		Bilimlar: Ishchi yo'riqnomasini talablari Ishlab chiqarish uchastkasining texnologik sxemalari va texnologik rejim parametrlari Texnologik jarayonning alohida bosqichlarining texnologik sxemasi Ish rejimi parametrlarini aniqlash va tartibga solish qoidalari va usullari Ish jarayonlari bo'yicha yo'riqnomalar va normativ-texnik hujjatlarning talablari Amaldagi xom ashyo va materiallarning xususiyatlari Asosiy jihozlar va yordamchi qurilmalarning xususiyatlari Ta'mirlash ishlarini bajarish tartibi Shaxsiy himoya vositalari, himoya qurilmalaridan foydalanish qoidalari Ishlab chiqarish ko'rsatmalari, ichki mehnat qoidalari
	A1.02.2- Suvni kimyoviy tozalashning texnologik jarayonini ishga tushirish	Mehnat harakatlari: 1. Texnologik uskunani ishga tushirish va uni normal texnologik rejimga chiqarish 2. Texnologik hujjatlarni yuritish 3. Reaktivlarni tayyorlash, dozalash va qurilmalarga yuklash 4. Nazorat-o'lchash asboblari va avtomatikaning ko'rsatkichlari va xizmat ko'rsatish qobiliyatini, signalizatsiya tizimlarining, avariya blokirovkalari va aloqa vositalarining holatini nazorat qilish 5. Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarining holati va yaroqliligini, avariya vositalarining, yong'in o'chirish vositalarining mavjudligi va yaroqliligini nazorat qilish va tekshirish 6. Xom ashyoni tayyorlash: ion almashinadigan smolalarni elakdan o'tkazish, suvni tiniqlash va isitish, belgilangan konsentratsiyalarda eritmalar tayyorlash 7. Texnologik uskunalar va kommunikatsiyalar, armatura, ta'minot va chiqindi ventilyatsiya tizimlarining holatini tekshirish va nazorat qilish 8. Texnologik asbob-uskunalar va kommunikatsiyalar, armatura, kirish va chiqarish shamollatish tizimlarini va ularning holatini nazorat qilish 9. Texnologik jihozlarni ishga tushirishga tayyorligi to'g'risida smena boshlig'ini xabardor qilish Ko'nikmalar: Xizmat ko'rsatilayotgan uskunaning ishlashidagi nosozliklarni ta'mirlash Nazorat- o'lchash asboblari va avtomatika, aloqa va aloqa vositalaridan foydalanish Texnologik uskunalarni ishga tushirish operatsiyalarini bajarish Xom ashyo, yordamchi materiallar va energiya resurslari sarfini boshqarish Asosiy va yordamchi uskunalarning ishlashi

		Texnologik rejim me'yorlaridan chetga chiqish sabablarini oldini olish va bartaraf etish
		Texnologik asbob-uskunalar, boshqaruv uskunolari va asboblari, kommunikatsiyalarning nosozlik belgilari va ularning sabablari
		Uskunalarni ta'mirlash bo'yicha belgilangan tartib va talablarga rioya qilish
		Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish
		Me'yoriy-texnik hujjatlarni yuritish
		Bilimlar:
		Texnologik jarayonlarning yuritish xususiyatlari
		Texnologik jarayonlarning parametrlari
		Texnologik uskunalarni ishga tushirishga tayyorlash tartibi
		Asbob-uskunalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalar
		Xom ashyoning fizik-kimyoviy xossalari
		Xom ashyo va tayyor mahsulotni sarfi
		Ta'mirlash ishlarini bajarish qoidalar
		Ish rejimi parametrlarini aniqlash va tartibga solish qoidalar
		va usullari
		Zaxira uskunasiga o'tish qoidalar
		Texnologik jarayon sxemasi
A1.03.2- Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini yuritish		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyi uchun texnologik hujjatlarni yuritish
		2. Kationit va anionit filtrlarida va ionit adsorbsion kolonnalarida ion almashtirish usuli bilan suvni tuzsizlantirish jarayonini yuritish
		3. Nazorat-o'lchash asboblari va avtomatikaning ko'rsatkichlari va xizmat ko'rsatish qobiliyatini, signalizatsiya tizimlarining, avariya blokirovkalari va aloqa vositalarining holatini nazorat qilish
		4. Ishlab chiqarishning keyingi texnologik bosqichlariga boshqaruv pulti yoki qo'lda suv berishni tartibga solish
		5. Xizmat ko'rsatayotgan asbob-uskunalar ishidagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
		6. Suvni kimyoviy tozalash, chiqindilarni chiqarish texnologik jarayon parametrlarini monitoring qilish
		8. Barcha aniqlangan nosozliklar to'g'risida smena boshlig'ini xabardor qilish va smena boshlig'ining ko'rsatmasi bilan nosozliklarni bartaraf etish choralari ko'rish
		9. Xizmat ko'rsatiladigan asbob-uskunalar va kommunikatsiyalarni ish o'rni bo'yicha hujjatlarga yozib qo'yilgan holda har soatda ko'zdan kechirish
		10. Uskunani ishchi muhiti bilan to'ldirish darajasini nazorat qilish
		11. Uskunalar, quvurlar, nasoslar, ventilyatsiya tizimlarining holatini kuzatish
		12. Moylar mavjudligini, qo'zg'aluvchan asosiy podshipniklarning harorati va moy nasosining mavjudligini tekshirish

		Ko'nikmalar:
		Texnologik uskunani ishga tushirishda texnologik jarayonning parametrlarini nazorat qilish va tartibga solish
		Texnologik jarayonning ko'rsatkichlarini kuzatib borish
		Xomashyo, yordamchi materiallar va energoresurslarni sarfini nazorat qilish
		Texnologik rejim normalaridan chetlash sabablarini oldini olish va bartaraf etish
		Texnologik jarayonning yukini izchil o'zgartirishni amalga oshirish
		Xizmat ko'rsatilayotgan uskunalarning tuzilishi va ishlashi
		Texnologik jarayonni tartibga solish va yuritish
		Ishlab chiqarishni nazorat qilish
		Namuna olish
		Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Bajariladigan ishlarni xavfsiz olib borish
		Uskunalarni ta'mirlash bo'yicha texnologik yechimlarni joriy etish
		Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish
		Uskunalarni ta'mirlash, belgilangan tartib va talablarga rioya qilish
		Me'yoriy-texnik hujjatlarni yuritish
		Bilimlar:
		Suvni kimyoviy tozalash apparatchisining yo'riqnomalar talablari
		Texnologik jarayonlarning mohiyati
		Texnologik jarayonni sxemasi
		Texnologik me'yorlardan chetga chiqish sabablarini oldini olish va bartaraf etish usullari
		Texnolog uskunaning tuzilishi, ish prinsipi va texnik xususiyatlari
		Texnologik rejim me'yorlari
		Shaxsiy himoya vositalari, himoya qurilmalaridan foydalanish qoidalari
	A1.04.2- Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonining texnologik asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatish va diagnostika qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnologik uskunalariga xizmat ko'rsatish va diagnostika qilish bo'yicha texnologik hujjatlarni ish o'rni bo'yicha yo'riqnomalarga muvofiq yuritish
		2. Suvni tozalash agregatlari va kondensat tozalash apparatlari, isitgichlar, tindirgichlar, saturatorlar, deaeratorlar, kationit va mexanik filtrlarga texnik xizmat ko'rsatish va tartibga solish
		3. Uskunalar faoliyatida aniqlangan nosozliklar to'g'risida smena boshlig'iga ma'lumot berish
		4. Texnologik uskunalar ishida aniqlangan kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish
		5. Texnologik jarayon uchun chiqindi materiallar va uskunaning ishdan chiqqan qismlarini almashtirish

		6. Nazorat-o'lchash asboblari va avtomatikaning yaroqligini tekshirish
		7. Zaxira uskunalarni foydalanishga tayyorligini aniqlash
		8. Texnologik jihozlarning tegishli pasportlariga muvofiq ta'mirlash ishlari o'tkazilgandan keyin uskunalarni sinovdan o'tkazish va ishga tushirish
		9. Ta'mirlash ishlaridan so'ng uskunani sinovdan o'tkazish va ishga tushirish
		10. Ta'mirlashdan keyin texnologik asbob-uskunalarining holatini tekshirish va baholash
		11. Texnologik uskunalarni normativ-texnik hujjatlarga muvofiq ta'mirlashga tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Texnologik uskunalarni normativ-texnik hujjatlarga muvofiq ta'mirlashga tayyorlash
		Uskunaning holati va ishga tayyorligini baholash
		Xizmat ko'rsatilayotgan texnologik uskunalarni o'chirish va yoqish
		Ta'mirlashda turdosh uskunalarining ish parametrlarini nazorat qilish
		Texnologik uskunalarni, ta'mirlashga tayyorlash
		Himoya armatura, nazorat-o'lchash asboblari holatini nazorat qilish
		Texnologik uskunalarni zaxiraga o'tkazish
		Ta'mirlash ishlaridan keyin uskunalarni sinovdan o'tkazish
		Texnologik uskunalarga xizmat ko'rsatish va diagnostika qilish bo'yicha texnologik hujjatlarni yuritish
		Bilimlar:
		Suvni tozalash apparatchisining ish joyi bo'yicha yo'riqnomalar talablari
		Texnologik uskunalar, aloqa vositalari, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Texnologik sxema, asbob-uskunalarini joylashtirilishi tartibi
		Xizmat ko'rsatiladigan uskunalar va favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimlarining maqsadi, tuzilishi, ishlash prinsiplari
		Foydalanilayotgan xomashyo, materiallar, yarim mahsulotlar va tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy xossalari
		Xizmat ko'rsatiladigan uskunalar: suv tayyorlash qurilmalari, turli tizimlar filtrlari, nasoslar, dozatorlar, deaeratorlar, saturatorlar, tindirgichlar va suvni kimyoviy tozalash jarayonida qo'llaniladigan boshqa apparatlarning ishlash prinsipi va ishlash qoidalari
		Uskunalarini ta'mirlashga tayyorlash, ta'mirlashga topshirish va ta'mirlashdan qabul qilish qoidalari
		Analitik nazorat jadvali va me'yorlari
		Texnologik operatsiyalarni bajarishda xavfsiz ish usullari

	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Texnologik qurilmalarni ishga tushirishga tayyorgarlikni to'g'ri va xavfsiz tashkil etish
		2. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		3. Zaruriy xom ashyo va materiallar tayyorlash, ishni samarali amalga oshirish
		4. Kichik ta'mirlash ishlarida ishtirok etish
A2.2- Kation va anionit filtrlarida va ionit adsorbsion kolonnalarda ion almashtirish usuli bilan suvni tuzsizlantirish jarayonini yuritish	A2.01.2- Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayoni doirasida smenalarni qabul qilish va topshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Smenani topshirishdan oldin ish joyini tartibga keltirish
		2. Smena boshlig'idan smenani qabul qilish topshirish uchun ruxsat olish
		3. Smena qabul qiluvchi apparatchini smenani topshirish vaqtida asosiy va yordamchi uskunalarning holati, texnologik jarayonning borishi, texnologik rejimdan chetga chiqish va muammolar to'g'risida xabardor qilish
		4. Jamoaviy himoya vositalari, birlamchi yong'in o'chirish vositalarining holatini tekshirish
		5. Texnologik asbob-uskunalar, aloqa vositalari, elektr jihozlarning ishlashi, nazorat-o'lchash asboblari va avtomatikaning holatini nazorat qilish
		6. Texnologik uskunalar, kommunikatsiya va ventilyatsiya holatini va xizmatga yaroqliligini tekshirish
		7. Birlamchi yong'in o'chirish vositalari, birinchi yordam ko'rsatish va asbob-uskunalarining holatini tekshirish
		8. Ish joyidagi texnologik hujjatlarda smenani qabul qilishni (topshirishni) imzo bilan tasdiqlash
		9. Texnologik asbob-uskunalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnologik hujjatlarni yuritish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyini tayyorlash
		Texnologik rejim me'yorlaridan og'ishlar va asosiy va yordamchi qurilmalar ishida nosozliklar mavjudligini, shuningdek texnologik rejim me'yorlaridan og'ishlarni keltirib chiqargan sabablarni baholash
		Shaxsiy himoya vositalari, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish
		Bino va inshootlarning holatini, ventilyatsiyasini baholash
		Texnologik uskunalar va kommunikatsiyalarning holatini nazorat qilish
		Elektr uskunalari, nazorat-o'lchash asboblari va avtomatika holatini nazorat qilish
		Himoya to'siqlarining yaroqliligini tekshirish
		Bilimlar:
		Smenani qabul qilish va topshirish tartibi
		Ichki mehnat tartibi qoidalar
		Texnologik uskunalar, kommunikatsiyalar tuzilishi va ishlash prinsipi
		Signalizatsiya, avariya qarshi bloklash va avariya qarshi himoya sxemalari
		Normativ-texnik hujjatlar
		Bajarilayotgan ishlar uchastkasining texnologik sxemasi
		Shaxsiy himoya vositalari, himoya qurilmalaridan foydalanish qoidalar

	A2.02.2- Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini nazorat qilish va boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Smena boshlig'ining buyruqlarini bajarish, texnologik jarayonlarning barcha buzilishlari to'g'risida xabardor qilish
		2. Asosiy va yordamchi uskunalar, nazorat-o'lchash asboblari va avtomatikaning ishlashidagi nosozliklarni aniqlash va ma'lumotlarni smena boshlig'iga etkazish
		3. Xomashyo va yordamchi materiallarni qabul qilish va tayyorlash
		4. Suvni kimyoviy tozalashning texnologik jarayonlarini yuritish
		5. Texnologik jarayonlarni yuritish, monitoring qilish va tartibga solish, texnologik rejimning smena boshlig'ining buyrug'i bilan belgilangan parametrlardan chetga chiqish sabablarini aniqlash, og'ishlar to'g'risida smena rahbariga ma'lumot etkazish va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish
		6. Smena boshlig'ining ko'rsatmasi bilan texnologik uskunaning ish rejimlarini o'zgartirish
		7. Reaktivlarni tayyorlash, ularni qurilmalarga yuklash
		Texnologik jarayonda mahsulotni tayyorlash va etkazib berish
		8. Analitik nazorat uchun namuna olish
		9. Tashqi tekshiruv vaqtida tashqi tuzilmalar va ularning elementlarining holatini tekshirish
		10. Texnologik hujjatlarni yuritish
		11. Suvni dastlabki kimyoviy tozalashni amalga oshirish
		12. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish uskunalari ishga tushirish va o'chirish
		13. Smena boshlig'ining ko'rsatmalari va yuqori malakali apparatchining buyruqlari asosida texnologik jarayonlarni tartibga solish
		14. Asosiy va yordamchi uskunalaridagi kichik nosozliklarni bartaraf etish
		15. Ish joyining tozaligini saqlash, belgilangan asbob-uskunalar va hududni tozalash
		Ko'nikmalar:
		Ishlatilgan xomashyo sarfi va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hisobini yuritish va ularning sifatini baholash
		Zaxira uskunasi o'tishni amalga oshirish
		Texnologik jarayonlarning borishi, xizmat ko'rsatilayotgan asosiy va yordamchi uskunalarini ishlatish
		Texnologik jarayonlarning parametrlarini boshqarish
		Asboblari yoki tahlil natijalaridan foydalanib, texnologik jarayonni talab qilinadigan parametrlardan og'ishlarini aniqlash
		Texnologik asbob-uskunalar, blokirovkalar va signalizatsiya, xavfsizlik klapanlari, reaktivlar mavjudligi, elektr jihozlari va yoritish, ventilyatsiya va isitish tizimlari va kanalizatsiya tizimlarining holatini tekshirish
		Nazorat uchun namuna olish
		Texnologik jarayonning parametrlarini aniqlash uchun nazorat-o'lchash asboblariidan foydalanish

		Aloqa vositalaridan foydalanish
		Energiya resurslarini, xom ashyoni, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni nazoratini olib borish
		Xom ashyoni tayyorlash
		Asboblarni ishlatish, asbob-uskunalarni ishlatish qoidalariga muvofiq xom ashyoni tashish, dozalash va yuklash uchun asbob-uskunalar, zarur qurilmalar va asboblardan foydalanish
		Bilimlar:
		Xom ashyo, materiallar va energiya resurslari uchun joriy iste'mol normalari
		Uskunaning ishlashidagi asosiy nosozliklar, ularning paydo bo'lishining mumkin bo'lgan sabablari va ularni bartaraf etish usullari
		Uskunalar ro'yxati, jarayon rejimi parametrlari va jarayonni boshqarish qoidalar
		Amaldagi xom ashyo iste'moli va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hisobini yuritish tartibi, ularning sifatini baholash usullari
		Normativ hujjatlarni yuritish tartibi va qoidalar
		Xizmat ko'rsatilayotgan uskunani ishga tayyorlash qoidalar, uskunani ishdan chiqarish, uskunani ishga tushirish va to'xtatish tartibi
		Bloklash sxemalari
		Texnologik sxemalar
		Texnologik jarayonni olib borish tartibi
		Tuzlar, kislotalar, ishqorlar eritmalarining fizik-kimyoviy xossalari
A2.03.2- Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini rejali to'xtatish		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyidagi ishlab chiqarish ko'rsatmalariga muvofiq texnologik asbob-uskunalar va texnologik jarayonni smena boshlig'ini xabardor qilgan holda ketma-ket to'xtatish
		2. Texnologik asbob-uskunalar va texnologik jarayonni to'xtatish to'g'risida hujjatlarga yozuv kiritish
		3. To'xtatish jarayonida aniqlangan nosozliklarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarni ko'rish
		4. Texnologik jarayon parametrlarini to'xtatish vaqtida nazorat qilish
		5. Asbob-uskunalarni amaldagi texnologik sxemalardan uzish
		6. Texnologik asbob-uskunalarni ishchi muhitdan ozod qilish, uskunani xavfsiz holatga keltirish
		7. Texnologik jarayonni to'xtatish uchun bajarilgan va tugallanmagan ishlar to'g'risida smena operatorini xabardor qilish
		Ko'nikmalar:
		Ish ko'rsatmalariga muvofiq texnologik uskunani to'xtatish
		Texnologik uskunani to'xtatganda jarayon parametrlarini kuzatib borish va tartibga solish
		Texnologik uskunalarining holatini baholash
		Ta'mirlash ishlarini nazorat qilish

		Texnologik hujjatlarni yuritish
		Xavfsiz ish usullarini qo'llash
		Shaxsiy himoya va yong'inga qarshi vositalardan foydalanish
		Bilimlar:
		Smenani qabul qilish va topshirish tartibi
		Ichki mehnat tartibi qoidalari
		Texnologik uskunar, kommunikatsiyalar tuzilishi va ishlash prinsipi
		Signalizatsiya va avariya qarshi himoya sxemalari
		Ish o'rni bo'yicha normativ-texnik hujjatlar
		Bajarilayotgan ishlar uchastkasining texnologik sxemasi
		Shaxsiy himoya vositalari va qurilmalaridan foydalanish qoidalari
		Ishchi yo'riqnomalarga binoan qish paytida qurilish va uskunalardan foydalanish va to'xtatishning o'ziga xosliklari
		Asosiy va yordamchi texnologik tuzilmalarni to'xtatish tartibi
		Texnologik uskunalar ta'mirlash va qabul qilish tartibi
A3.2- Kationit va anionit filtrlarda va ionit adsorbsion kolonnlarda ion almashtirish usuli bilan suvni chuqur tuzsizlantirish jarayonini yuritish	Mas'uliyat va mustaqillik:	1.Bajariladigan ishlarning texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash
		2.Ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishni nazorat qilish
	A3.01.2- Texnologik jarayonni tahlillar va kuzatuvlar natijalari bo'yicha yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonini texnologik rejim me'yorlariga muvofiq yuritish
		2. Ish joylari bo'yicha yo'riqnomalar talablariga rioya qilish, texnologik sxemani o'qish
		3. Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika ko'rsatkichlaridan foydalanish
		4. Texnologik jarayon xavfsizligini ta'minlash
		5. Kuzatuv va tahlillar natijalarini smena hisobotida qayd qilish
		Ko'nikmalar:
		Nazorat natijalarini baholash va ro'yxatga olish
		Nazorat qilinadigan qismlarni sinash
		Tahlil va kuzatuvlar natijalariga ko'ra kommunikatsiyalarni texnologik sxemalarga binoan ishlashini ta'minlash
		Texnologik jarayonni belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlar bo'yicha yuritish
		Texnologik uskunalarining ishlash holatini asboblarga ko'rsatkichlariga asosan aniqlash
		Bilimlar:
		Texnologik rejim me'yorlari
		Nazorat natijalarini baholash
		Tahlillar o'tkazish va hisoblash uslublari
		Kuzatuv va tahlillar natijalari bo'yicha ko'rsatkichlarni to'g'rilash asoslari
		Smena raportini to'ldirish qoidalari
		Texnologik uskunar va nazorat-o'lchov asboblari ishidagi nosozliklarni bartaraf etish usullari

	A3.02.2- Suvni kimyoviy tozalash texnologik jarayonni favqulodda to'xtatish	Mehnat harakatlari: 1. Ish ko'rsatmalariga va favqulodda to'xtash ko'rsatmalariga muvofiq uskunani o'chirishni amalga oshirish 2. Smena boshlig'i bilan kelishilgan holda ish o'rni bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq zaxira uskunalariga o'tish 3. Smena boshlig'i bilan kelishilgan holda yo'riqnomalarga muvofiq avtomat boshqaruvdan qo'l boshqaruviga o'tish 4. Signal va blokirovka tizimlarining ulanishini tekshirish 5. Avariya holatiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralarni ko'rish 6. Texnologik jarayonni favqulodda to'xtatish vaqtida texnologik hujjatlarni yuritish Ko'nikmalar: Avariya vaziyatida choralar ko'rish Texnologik asbob-uskunalarda operatsiyalarni bajarish Avariya vaziyatida yo'riqnomaga muvofiq uskunalarni o'chirish va yoqish Shaxsiy himoya vositalaridan va yong'inga qarshi vositalardan foydalanish Baxtsiz hodisadan jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish Bilimlar: Uskunani favqulodda to'xtatish qoidalari Uskunani o'chirish va yoqish tartibi Zaxira uskunasi o'tish qoidalari Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari Signalizatsiya, blokirovkalash va favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sxemalari Birinchi yordam ko'rsatish qoidalari
		Mehnat harakatlari: 1. Muntazam aylanib chiqishlar vaqtida ijro mexanizmlarni, texnologik asbob-uskunalar faoliyatini nazorat qilish 2. Signalizatsiya va avariya qarshi blokirovkalash tizimlari, kommunikatsiyalar, ventilyatsiya tizimlari, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatikani muntazam tekshirish vaqtida ishlarini nazorat qilish 3. Asbob-uskunalar ishida aniqlangan nosozliklar to'g'risida hujjatlarga yozuvlar kiritish 4. Texnologik jarayonni yuritish to'g'risida smena boshlig'iga axborot berish 5. Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish uchun smena xodimlarini bajarilgan ishlarini nazorat qilish 6. Muntazam aylanib chiqishlar vaqtida shaxsiy himoya va jamoaviy himoya vositalarining holatini tekshirish Ko'nikmalar: Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatikaning ko'rsatkichlari bo'yicha uskunaning holatini baholash Asbob-uskunalar ta'mirlash Texnologik uskunalar, quvurlar holatini baholash Texnologik uskunalar ko'rsatkichlari va jurnallardagi yozuvlarni tahlil qilish Uskunalarni zaxiraga olish va qayta ishga tushirish
	A3.03.2- Muntazam aylanib chiqishlar vaqtida texnologik uskunalarining ishlashini nazorat qilish	

		Bilimlar:
		Asosiy va yordamchi asbob-uskunalar, quvurlar va armaturalar, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatikaning ish prinsipi va joylashuvi, signalizatsiya va bloklash sxemalari
		Apparatchining ish joyi bo'yicha yo'riqnomalar talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar talablari
		Ishlab chiqarish, uchastka yoki asbob-uskunalarining texnologik sxemasi
		Muntazam nazorat olib borish tartibi
		Favqulodda choralar rejasi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Bajariladigan ishlarining texnik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash. 2. Ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishni nazorat qilish.
Texnik va/yoki texnologik talab:		Mobil va statsionar aloqa vositalaridan foydalanish; Ta'mirlash ishlari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va materiallardan foydalanish; Shaxsiy himoya vositalaridan va yong'inga qarshi vositalardan foydalanish; Baland ovoqli va ratsiya aloqa vositasidan foydalanish; Texnologik jihozlar uchun texnik pasportlar va ekspluatatsiya ko'rsatmalaridan foydalanish.

Kasbning nomi:	Suyuqlikni tozalash apparatchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	81313	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); ishga mas'uliyat bilan yondashish; texnologik intizomga rioya qilish; diqqat bilan ishlash va ko'rsatmalarga amal qilish; xavfsizlik qoidalariga amal qilish; jarayondagi o'zgarishlarni sezish va xabar berish; jamoada ishlay olish; berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish; favqulodda holatlarda belgilangan tartibda harakat qilish; o'rganishga tayyorlik va malakasini oshirib borishga intilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-5 razryadli Suyuqlikni tozalash apparatchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Suyuqlikni tozalash apparatchisi
Mehnat vazifalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
